

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



Toshkent shahrida 2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining asosiy ko'rsatkichlari

RAQAMLAR:

• Sanoat mahsuloti hajmi **42 600,9 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati **109,9 %** ni tashkil etdi.

• Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **19 927,5 mlrd.so'mni** va o'sish sur'ati **111,5 %** tashkil etdi.


• Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi **46,8 %** ni tashkil etdi.

• Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **72,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oyida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 42 600,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmining 8,0 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 2,9 barobarga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 3,8 ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 2,3% ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % d



■ Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati - 287,6 %)

■ Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 108,0 %)

■ Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 103,8 %)

■ Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'sish sur'ati - 102,3%)

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-dekabr oyida Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 1349,5 mlrd.soʻmlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining 3,2 % ni tashkil etgan.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 3,8 marta va boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati esa 6,6 % ga oshganini kuzatish mumkin.


2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Oʻsish surʼati
269328,3	<p>Tabiiy gaz va xom neft qazib olish</p> 	1163873,0	3,8 m.
635,2	<p>Metall rudalarini qazib chiqarish</p> 	769,8	120,7
135955,6	<p>Boshqa togʻ-kon sanoati</p> 	169016,8	106,6

Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqaradigan maxsulotlar hajmi 38737,8 mlrd.soʻmni va oʻtgan yilga nisbatan 108,0 % oʻsish surʻatini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 4,9 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali – 23,8 %, oʻrta-quyi texnologiyali – 34,9 % , quyi texnologiyali – 36,4 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Oʻz navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish 2,4 % ga , mebel ishlab chiqarish 11,1% ga kamaygan boʻlsa, tamaki mahsulotlari hajmi 2 martaga , tekstil mahsulotlari – 16,1 % ga, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari – 7,6 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – 88,7 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	O'sish sur'ati %da
4030843,9	<p align="center">Oziq-ovqat mahsulotlari</p> 	4295715,5	97,6
1828156,6	<p align="center">Ichimliklar ishlab chiqarish</p> 	2556844,3	123,8
13280,6	<p align="center">Tamaki mahsulotlari</p> 	30300,0	204,3
1400961,3	<p align="center">Tekstil mahsulotlari</p> 	1963219,8	116,1

Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari

923831,2



1054090,5

107,6

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar

94480,1



264097,5

188,7

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1607,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 3,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 103,8% ga ko'paygan.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 906,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,1 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2018 yil yanvar-dekabr oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ga ko'paygan.

Iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish


Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-dekabr oyida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 19927,5 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, %



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6106,8 mlrd.so'mga etkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 30,6% , nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 13186,4 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 66,2%, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 634,4 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 3,2% tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oyida tumanlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng kup ulush Olmazor tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (14,9 % ulushini), Yashnobod (12,2%), Sirg'ali (11%) va Chilonzor (10,6%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Mirobod (5,4 %) tumani, Yunusobod (6,6 %) va Bektemir (7,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar-dekabr oyida hududlarda iste'mol tovarlarni
ishlab chiqarish hajmi (% , da)**




SHu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir tumani (118,2 %) , Yashnobod tumani (116,9%) va Yunusobod tumanlarida (113,3) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Chilonzor (107,2%) va Olmazor tumani(109,5%).

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 12,7 % ulushini), Mirzo Ulug'bek tumani (11,6 %), Olmazor tumani (11,4 %), Shayxontohur tumani (10,8%) va Sirg'ali tumani (9,7 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2018 yilning yanvar-dekabr oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



SHuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (4,7 %), Uchtepa (6,3 %), Mirobod (7,0 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘rish sur‘atlari

(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Bunda Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda eng yirik o‘rish sur‘atlari Mirobod (117,6 %) da , shuningdek Yakkasaroy tumani (115,3 %) va Sirg‘ali tumanlarida (112,0%) kuzatilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oyida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 72,9 % ni tashkil etgan.



S noat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 91,4 %), Uchtepa (91,1%), Yakkasaroy (90,2 %) va Yunusobod (87,1 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (45,2%), Mirzo Ulug'bek (46,2 %) va Shayxontoxur (56,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun ma'sul: Nishanbaeva N.
Aloqa telefoni: (0371) 230-88-16